



O'ZBEKISTONNING YANGI KO'P VEKTORLI TASHQI SIYOSATI:
MUVOZANAT STRATEGIYASI

Qo'shiyeva Sevara Keldibek qizi

Annotasiya. *Mazkur maqolada O'zbekistonning yangi ko'p vektorli tashqi siyosati va uning mintaqaviy hamda global miqyosdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada mamlakatning turli siyosiy markazlar bilan muvozanatli hamkorlik yuritish strategiyasi ochib berilgan. Shuningdek, bu siyosatning O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va xalqaro nufuzini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ko'p vektorli siyosat, tashqi aloqalar, muvozanat strategiyasi, mintaqaviy hamkorlik, global siyosat, diplomatiya, barqaror rivojlanish, xalqaro nufuz, geosiyosiy strategiya.*

Abstract. *This article analyzes Uzbekistan's new multi-vector foreign policy and its role on both regional and global levels. The article reveals the country's strategy of maintaining balanced cooperation with various political centers. It also highlights the significance of this policy in ensuring Uzbekistan's sustainable development and enhancing its international reputation.*

Keywords: *Multi-vector policy, foreign relations, balance strategy, regional cooperation, global politics, diplomacy, sustainable development, international reputation, geopolitical strategy.*

KIRISH

O'zbekiston konsepsiyasi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish davrini boshlab berdi. Ushbu ibora nafaqat ichki islohotlar jarayonini, balki tashqi siyosatdagi yangilanish, muvozanat va pragmatik yondashuvning ifodasi sifatida ham e'tirof etiladi. Bugungi kunda O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoning markazida joylashgan davlat sifatida, balki mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etuvchi mustaqil subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatning tashqi siyosati "ochiq, pragmatik, muvozanatli va ko'p vektorli siyosat" tamoyillari asosida shakllanmoqda. Bu yondashuv davlatni bir vaqtning o'zida turli geosiyosiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga, biror blok yoki alyans manfaatlariga biryoqlama bog'lanmaslikka, o'z milliy manfaatlarini global o'zgarishlar fonida muvozanatli tarzda himoya qilishga imkon bermoqda. Ko'p vektorli siyosat bu tashqi aloqalarda diversifikatsiya, ya'ni turli yo'nalishlarda bir vaqtda faoliyat yuritish demakdir. Shu ma'noda mamlakat Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi yetakchi davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirib kelmoqda. Bu yondashuvning mohiyati geosiyosiy raqobatni mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyot manfaati yo'lida uyg'unlashtirishdan iborat. Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatning 2017-yildan buyon olib



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



borayotgan “*yaxshi qo‘shnichilik*” siyosati natijasida mintaqadagi barcha qo‘shni davlatlar bilan ishonch va o‘zaro hurmatga asoslangan hamkorlik o‘rnatildi. Ayniqsa, suv resurslari, chegara masalalari, transport-logistika yo‘laklarini ochish kabi masalalarda yangi yondashuvlar joriy etildi. O‘zbekistonning tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlari yo‘lga qo‘yildi. Bu mintaqadagi davlatlari o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlab, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik sohalarida yangi platformalarni shakllantirdi. Natijada, O‘zbekiston bugungi kunda mintaqaviy siyosatda vositachilik, diplomatik muvozanatni saqlash va ishonchli hamkor sifatida e‘tirof etilmoqda. Tashqi siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirishdir. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, sarmoya muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini kengaytirish va global bozorlar bilan integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Energetika, transport-logistika, qishloq xo‘jaligi, turizm va IT sohalarida xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu esa mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzini oshirib, ichki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirmoqda. Bu hamkorlik nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, balki ijtimoiy loyihalar ta‘lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish sohalarini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim o‘rin tutmoqda. Davlatning yangi tashqi siyosati xalqaro xavfsizlik masalalariga ham befarq emas. Mamlakat terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilmoqda. Milliy xavfsizlikni ta‘minlash, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni saqlash siyosatning ajralmas tarkibiy qismidir. Harakatlar strategiyasining beshinchi bosqichi “Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” aynan shu yo‘nalishdagi islohotlarni tizimli asosda amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Bu bosqichda O‘zbekiston xalqaro maydonda nafaqat ishonchli hamkor, balki mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta‘minlashga hissa qo‘shuvchi davlat sifatida tanildi. Bugungi kunda global raqobat va siyosiy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir davrda mamlakat tashqi siyosatida milliy manfaatlarni global tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirish tamoyiliga amal qilmoqda. Davlatning tashqi siyosiy konsepsiyasi mustaqil pozitsiyani saqlagan holda, xalqaro tashkilotlar bilan konstruktiv hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni maqsad qiladi. BMT, *Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti* (YXHT), *Shanxay hamkorlik tashkiloti* (ShHT), *Islom hamkorlik tashkiloti* (IHT) kabi yirik xalqaro tuzilmalar doirasida O‘zbekistonning faolligi ortib bormoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirib, “Yangi O‘zbekiston - ishonchli hamkor” degan qiyofani mustahkamlab bermoqda. O‘zbekistonning tashqi siyosati o‘ziga xos muvozanat strategiyasidir. U ichki barqarorlikni saqlagan holda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tashqi maydonda faol va konstruktiv diplomatiya olib borishga, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, global iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlanishga xizmat qilmoqda. Shu yo‘sinda mamlakat o‘z milliy manfaatlarini ilgari surar ekan, dunyo davlatlari bilan teng va o‘zaro manfaatli asosda hamkorlikni yanada kengaytirib, Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylanmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yangi ko‘p vektorli tashqi siyosati mamlakatni ng mustaqil, ochiq va pragmatik rivojlanish yo‘lini belgilab berdi. Bu strategiya orqali davlat bir vaqtning o‘zida turli geosiyosiy markazlar bilan teng hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, milliy manfaatlarini muvozanatli tarzda ilgari surmoqda. Mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va iqtisodiy integratsiya O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tayanch yo‘nalishlariga aylandi. Shu bilan birga, iqtisodiy diplomatiya, sarmoya jalb etish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mamlakatning global nufuzini yanada oshirmoqda. Yangi tashqi siyosatning muvaffaqiyati diplomatik muvozanat, ishonch va o‘zaro manfaat tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilmogda. Natijada, O‘zbekiston bugungi kunda mintaqada barqarorlik va hamkorlikni ta‘minlovchi, xalqaro maydonda esa ishonchli hamkor sifatida tanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qudratov. O. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. 2024-yil. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>
2. Hakimov F. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. 2022-yil, 1-fevral. Taraqqiyot strategiyasi markazi rasmiy sayti. <https://azkurs.org/yangi-ozbekiston-tashqi-siyosatining-ustuvor-yonalishlari.html>
3. Yuldashev, G. Shavkat Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston gazetasiga bergani tarixiy intervyusi. Yangi O‘zbekiston. 2022-yil, 23-dekabr [Historical interview of Shavkat Mirziyoyev with Yangi O‘zbekiston newspaper]. <https://aniq.uz/yangi/sh-men-ning-oz-gazetasiga-bo'l-sana-in-toliq>

